

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>O.M.Normatov</b>	
O'zbekistonning ma'muriy-hududiy holati rayonlashtirish o'tkazilishi arafasida .....	229
<b>Sh.T.Tursunkulova</b>	
G'azzoliyning go'zal axloq to'g'risidagi qarashlari.....	235
<b>I.M.Azimov</b>	
O'zbek-lotin alifbosini yaratish uchun harakatlar .....	239
<b>Sh.D.Ismoilov</b>	
Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shakl va metodlari .....	247
<b>A.A.Qambarov</b>	
Marg'ilonlik "Katta ashula" sohiblari.....	251
<b>M.Kamalitdinov, T.Mavlanov</b>	
Sharsimon qobiq dinamikasi qisman suyuqlik bilan to'ldirish.....	257
<b>A.I.Saminov</b>	
Oksyumoronning semantik xususiyatlari .....	261
<b>I.X.Mavlonov</b>	
Milliy yuksalish konsepsiyasini amalga oshirishning nazariy-metodologik asoslari .....	266
<b>B.X.Baydjanov, Z.I.Muhammadiyeva</b>	
O'quvchilarda mantiqiy kompetentlikni shakllantirish usullari.....	272
<b>B.X.Baydjanov, M.R.Maxkamov</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantirish .....	276
<b>Z.M.Abdullaev</b>	
Asl turkiy antroponimlar va ularning tarixiy-etimologik shakllanishi .....	280
<b>G'.Z.Abduraxmonov</b>	
Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida g'oyaviy birlashuv zaruriyatini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari.....	284
<b>O.A.Ashurova</b>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarida ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari .....	288
<b>Sh.Ismoilov</b>	
Nogironlik tushunchasining modellari .....	293
<b>D.O.G'afurov</b>	
Yangi O'zbekistonda oila munosabatlarining huquqiy asoslari hamda uning jamiyat ma'naviy rivojida tutgan o'rni.....	300
<b>D.B.Niyazov, M.M.Niyazova, Sh.M.Saydaxmedov, B.Z.Adizov, M.Y.Ismoilov</b>	
Nitron tolasi chiqindisi asosida F-seriyali flokulyantlarni olish .....	303
<b>D.S.Ergasheva</b>	
O'zbek xalq ertaklari orqali vatansevarlik va do'stlikka o'rgatishning pedagogik strategiyasini ta'nishlash .....	308
<b>G.M.Ravshanova</b>	
Axborotlashgan jamiyatda ta'lim va ta'lim axborotlashuvining dialektik aloqadorligi muammosini o'rganish .....	313
<b>O.O'.Xolmatova</b>	
O'zbek xalq maqollarida miqdor konseptining kognitiv xususiyatlari.....	320
<b>F.A.Tashpulatov</b>	
O'quvchi yoshlarni basketbolga o'rgatish texnikasining usullari.....	324
<b>S.G'.Shomurodova</b>	
Nikoh urf-odatlar bilan bog'liq kiyimlarning to'y qo'shiqlaridagi poetik talqini.....	329
<b>F.N.Usmonov</b>	
Zamonaviy kompyuter etikasi muammolari .....	334
<b>E.Sh.Jumayeva, U.U.Ruzmetov, Z.A.Smanova</b>	
Suvdagi og'ir metallarni aniqlash usullari va og'ir metallarning organizm hayotiy faoliyatiga zaharli ta'siri .....	340
<b>S.Sh.Do'saliyeva, V.U.Xo'jayev</b>	
<i>Allium karataviense</i> o'simligi takibidagi flavonoidlar taxlili.....	349

**O‘ZBEKISTONNING MA‘MURIY-HUDUDIIY HOLATI RAYONLASHTIRISH O‘TKAZILISHI ARAFASIDA****АДМИНИСТРАТИВНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЙ СТАТУС УЗБЕКИСТАНА СТАНОВИТСЯ РЕГИОНАЛЬНЫМ****ADMINISTRATIVE AND TERRITORIAL STATUS OF UZBEKISTAN BECOMES REGIONAL****Normatov Otabek Maxamatjonovich<sup>1</sup>****<sup>1</sup>Normatov Otabek Maxamatjonovich**

– Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Jahon tarixi kafedra mudiri, t.f.f.d.(PhD,) dotsent v.b.

**Аннотация**

*Ushbu maqolada O‘rta Osiyoda rayonlashtirish siyosati o‘tkazilishi arafasida O‘zbekistonning ma‘muriy-hududiy bo‘linishidagi o‘zgarishlar haqida turli-tuman tarixiy manbalar orqali so‘z yuritiladi. O‘rta Osiyo respublikalarida milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazilib, O‘zbekiston SSR tashkil topgach, O‘zbekiston rayonlashtirish siyosati o‘zining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Sovet hokimiyati tomonidan O‘rta Osiyoda rayonlashtirish siyosatini o‘tkazishga ham jiddiy tayyorgarlik ko‘rildi.*

**Аннотация**

*В данной статье через различные исторические источники рассказывается об изменениях в административно-территориальном делении Узбекистана накануне политики регионализации в Центральной Азии. После национально-территориального размежевания республик Средней Азии и образования Узбекской ССР политика зонирования Узбекистана вступила в новый этап. Seriously готовилась советская власть и к политике регионализации в Средней Азии.*

**Abstract**

*This article, through various historical sources, tells about the changes in the administrative-territorial division of Uzbekistan on the eve of the policy of regionalization in Central Asia. After the national-territorial demarcation of the republics of Central Asia and the formation of the Uzbek SSR, the zoning policy of Uzbekistan entered a new stage. The Soviet authorities were seriously preparing for the policy of regionalization in Central Asia.*

**Kalit so‘zlar:** O‘rta Osiyoda rayonlashtirish siyosati, milliy-hududiy chegaralanish, respublikalar va oblastlar, rayonlashtirish komissiyasi, rayon, qishloq soveti, aholi tarkibi, irrigatsiya tizimi.

**Ключевые слова:** Политика районирования в Средней Азии, национально-территориальное размежевание, республики и области, районная комиссия, район, сельсовет, структура населения, оросительная система.

**Key words:** Zoning policy in Central Asia, national-territorial demarcation, republics and regions, district commission, district, village council, population structure, irrigation system.

**KIRISH**

Sovet hokimiyati tomonidan O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazilgandan so‘ng, 1925-fevralda tashkil topgan O‘zbekiston SSRning tarkibidagi barcha viloyatlarda hududiy o‘zgarishlar o‘tkazildi. Sovet hokimiyati O‘zbekistonni Markaz nazoratidagi mustamlaka sifatida o‘z ta‘sirida doimiy saqlab qolishga intilgan bo‘lsada, shunga qaramasdan o‘lka iqtisodiyotini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish borasida ham turli xil islohotlar, chora-tadbirlar ham amalga oshirildi.

O‘rta Osiyoda yangidan barpo etilgan respublikalar va oblastlarning territoriyalarini belgilash bilan bir qatorda iqtisodiy (xo‘jalik) chegaralanishi ham o‘tkazildi, ya‘ni sobiq Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalari qo‘lida bo‘lgan fabrikalar, zavodlar, ekin maydonlari, chorva mollari, aksionerlik shirkatlari, madaniy-oqartuv muassasalari va boshqalar bu respublikalar o‘rtasida taqsimlandi. O‘rta Osiyo tugatish komiteti sobiq O‘rta Osiyo respublikalari qo‘lida bo‘lgan qimmatbaho narsalarning hammasini hisoblab chiqqan edi. Mana shu asosda iqtisodiy chegaralash o‘tkazildi[1].

O‘zbekistonning ma‘muriy-hududiy tuzilishi, aholining etnik tarkibi, qishloq xo‘jaligi sohasi va ularning ayrim jihatlari, chorvachilik sohasi va ularning umumiy holati, transport aloqalar tizimi, okrugning sanoatini o‘ziga xosligi, hududda savdo-sotiq munosabatlari o‘ziga xos ravishda yo‘lga qo‘yilganligi va amalga oshirilish jarayonlari statistik ma‘lumotlar va turli byulliten materiallaridagi ma‘lumotlar asosida o‘rganilishi ham mavzu dolzarbligini tashkil etadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, mazkur mavzuning tarixshunosligi unchalik boy emas. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishdan so'ng tashkil etilgan O'zbekiston ma'muriy-hududiy holati va tarixiga oid tarixiy tadqiqotlarni quyidagi uchta guruh: sovet davri, mustaqillik yillari hamda xorijiy tadqiqotlarga bo'lish mumkin. Sovet hokimiyati yillarida davlat va siyosat arboblari, tarixchilar tomonidan yaratilgan ayrim tadqiqotlarda ham O'zbekiston ma'muriy-hududiy holati va tarixi haqidagi fikrlar ma'lum ma'noda o'z aksini topgan.

XX asr 20-30-yillarida chop etilgan boshqa bir turkum adabiyotlarda O'zbekistonning sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan ma'muriy-hududiy siyosati davridagi tarixi va xo'jalik ahvoli to'g'risida so'z yuritiladi. Bundan tashqari, O'zbekiston SSRning rahbarlari, siyosiy arboblarning ham bu masala xususidagi maqolalari va nutqlari ham mavjud.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Markaziy territorial-komissiya tomonidan tuzilgan milliy-hududiy chegaralanishga oid loyiha O'rta Osiyoda tashkil etilgan yangi sovet respublikalarini hududini belgilashda asos bo'lib xizmat qildi. 1925-yil davomida Ittifoq hukumati O'zbekiston va Turkmaniston respublikalari, Tojikiston avtonom sotsialistik sovet respublikalari va Qirg'iziston avtonom oblastining oliy hokimiyat organlari, shuningdek, O'rta Osiyo tugatish komitetining ishtirokida yuqorida zikr etilgan loyihani qunt bilan o'rganib chiqishni davom ettirdi. Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi hukumati O'rta Osiyo respublikalariga o'zining maxsus komissiyasini yubordi, bu komissiya yangidan barpo etiladigan respublikalarning joylarda loyihalashtirilgan chegaralarini ko'rib chiqdi.

Milliy chegaralash o'tkazilishi natijasida O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tarkibiga quyidagi hududlar kirdi:

a) Sobiq Turkiston ASSRdan: unga Samarqand oblasti Samarqand, Jizzax, Kattaqo'rg'on va Xo'jand uyezdlarining 41 volosti, Sirdaryo oblasti Toshkent va Mirzacho'l uyezdlarining 24 volosti, Farg'ona oblasti Andijon, Qo'qon, Namangan, Farg'ona uyezdlarining 70 volosti va 7 ta qishloq jamoasi (Shohimardon, Vodil, Yordon va b.);

b) Sobiq Buxoro SSRdan: Boysun, Buxoro, G'uzor, Qarshi, Karmana, Nurota, Shahrisabz, Sherobod va qisman Sariosiyo viloyatlari;

v) Sobiq Xorazm SSRdan: keyinchalik Gurlan, Yangi Urganch va Xiva uyezdlarini tashkil etgan 23 ta sho'ro (rayon volostlari).

1929 yil noyabrgacha O'zbekiston SSR tarkibida bo'lgan Tojikiston ASSR bu paytda Turkiston va Buxoroning bir qancha rayonlaridan tashkil topdi. Uning tarkibiga quyidagilar kirgan:

a) Sobiq Turkiston ASSRdan: Samarqand oblastining Samarqand va Xo'jand uyezdlarining 12 ta volosti va Farg'ona oblastining Pomir rayoni;

b) Buxoro SSRdan: G'arm, Hisor, Ko'lob, Qo'rg'ontepa, Dushanbe va qisman Sariosiyo viloyatlaridan iborat Sharqiy Buxoroning deyarli hammasi[1].

O'zbekiston SSR dastlabki tashkil topgan davrida uning territoriyasi 312 394 km<sup>2</sup>, shu jumladan, Tojikiston ASSR 135 620 km<sup>2</sup> edi (Tojikiston hududi Xo'jand okrugidan tashqari)[2]. Bu paytga kelib O'zbekiston SSR aholisining 3 963 285 kishi (Toshkent aholisidan tashqari) yoki butun O'rta Osiyo aholisining yarmidan iborat edi[3].

O'zbekiston SSR barpo etilgan dastlabki davrda respublika markazida joylashgan Samarqand shahri uning poytaxti bo'lgan (Buxoro shahri 1925 yil fevral-may oylarida birinchi poytaxt bo'lib turgan). O'sha yillarda O'zbekistonning hamma qismlarini bir butun qilib birlashtirishda, sovet apparati ishlarini jonlashtirishda Samarqandning poytaxt bo'lishi maqsadga muvofiq edi[4]. Sovet mahalliy organlari o'z ishlarini yanada yaxshilagach va ularning markaziy hukumat muassasalari bilan aloqalari mustahkamlangach, 1930 yil 20 sentyabrda O'zbekiston poytaxti nafaqat respublikaning, balki butun mintaqaning muhim iqtisodiy, siyosiy va madaniy markazi bo'lgan Toshkent shahriga ko'chirildi[4].

Turkmaniston SSR Turkiston ASSRning Turkman oblastidan, Buxoro SSRning muxtor Turkman oblastining Chorjo'y, Karki viloyatlari va Sherobod viloyatining Kalif tumanidan, shuningdek, Xorazm SSRning 8 sho'rosidan iborat Turkman oblastidan tuzildi.

Qirg'iz avtonom oblastiga Turkiston ASSRdan Yettisuv (Semirech'ye) oblastining Qorako'l, Norin va Pishpek uyezdlari (Pishpekning 3 ta volostidan tashqari), Sirdaryo oblastining 14 ta volosti va Farg'ona oblastining 38 ta volosti kirdi.

Qoraqalpoq avtonom oblasti Turkiston ASSRning Amudaryo oblastidan va Xorazmning 3 ta sho'rosidan barpo etildi. Ma'muriy jihatdan u 4 okrugga: To'rtko'l, Chimboy, Xo'jayli va Qo'ng'iro't okruglariga bo'lingan.

Qirg'iziston ASSR [Qozog'iston ASSR] hududiga (u 1920 yil avgustda tashkil topgan edi) Turkiston ASSRning Sirdaryo oblastidan Qazali, Oqmachit, Turkiston, Chimkent uyezdlari to'liq, Avliyoota uyezdining ko'pchilik volostlari (24 ta), Toshkent uyezdining 10 ta volosti, Mirzacho'l uyezdining 2 ta volosti; Yettisuv oblastidan Olmaota, Jarkent, Lepsinsk, Toldiqo'rg'on uyezdlari to'liq va Pishpek uyezdining 3 ta volosti; Samarqand oblastidan Jizzax uyezdining 6 ta ko'chmanchi volosti kirdi[5].

Iqtisodiy chegaralash asosan 1925-yil mart oyida o'tkazilgan edi. RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosining 1925-yil 14 – 16 martda bo'lib o'tgan plenumi iqtisodiy rayonlashtirish natijalarini muhokama qildi va chegaralanishdan so'ng har bir yangi respublika xalq xo'jaligini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun zarur bo'lgan yetarli moddiy resurslarga va iqtisodiy bazaga ega, deb qayd qilib o'tdi[6]. O'rta Osiyo milliy sovet respublikalari va avtonom oblastlarining xo'jalik qurilishi shu iqtisodiy baza asosida rivojlanishi kerak edi.

1924 – 1925-yillarda O'zbekiston SSR xalq xo'jaligining asosiy tarmog'i qishloq xo'jaligidan iborat bo'lib, unda respublika aholisining 85 foizi band bo'lgan. O'zbekiston 1 195000 desyatina[3] sug'oriladigan yer maydoniga ega bo'ldi[10]. Ittifoq bo'yicha 1923 – 1924 yillarda yetishtirilgan 14,2 mln pud paxtadan O'zbekiston hissasiga taxminan 10 mln pudi (qariyb 70 foizi) to'g'ri kelgan edi. Farg'ona va Zarafshonning serhosil vodiylari, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Toshkentning kattagina qismida paxta dalalari joylashgan edi. Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Buxoro va respublikaning boshqa rayonlari bog'-rog'lari, uzumzorlari, pillachiligi bilan mashhur edi.

O'zbekiston SSR g'allakor va chorvachilik rayonlariga ham ega bo'lgan. Milliy-hududiy chegaralanishdan so'ng O'zbekistonga O'rta Osiyo bo'yicha hisobga olingan 10 321 000 bosh chorvadan deyarli 2 600 000 boshi berildi. Ana shu negizda asoslanib Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryoda chorvachilik, ayniqsa, qorako'lchilik yanada rivojlantirildi. Qozog'istonga qo'shilgan chorvachilik rayonlari chorva mollari sonining ko'pligi bo'yicha birinchi o'rinda turar edi[7].

O'rta Osiyoda o'tkazilgan rayonlashtirish siyosati, milliy-hududiy chegaralanish ishlari 1924 yil oxiri va 1925-yil boshlarida O'zbekiston SSRni ma'muriy bo'lish bilan ham o'zaro chambarchas bog'langan edi. I. Magidovich rahbarligida tuzilgan O'rta Osiyoni rayonlashtirish komissiyasi 1924 yil iyundan boshlab o'z faoliyatini kuchaytirgan edi.

O'zbekiston SSR Revolyutsion komiteti 1924-yil 28-dekabrda bo'lgan o'z majlisida Davlat reja komiteti huzurida O'zSSR rayonlashtirish komissiyasini tashkil qildi. Komissiyaga O'zSSR Markaziy statistika boshqaruvchisi Vasilev rais qilib tayinlandi va uning tarkibiga Revkom tashkiliy bo'limi, Davlat reja komiteti, Ichki ishlari xalq komissarligi, Yer ishlari xalq komissarligi, Suv xo'jaligi boshqarmasi, Moliya xalq komissarligi, Ishchi-dehqon inspeksiyasi xalq komissarligi singari turli komissarlik va idoralarning vakillari kiritilib, ularga O'z SSRning ma'muriy bo'linishini ishlab chiqish vazifasini qo'ydi. O'zbekiston SSR tuzilgach (1925-yil fevral), Revkomning tashkiliy bo'limi vakili o'rnini O'zbekiston SSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Komiteti tashkiliy bo'limi vakili egalladi[8].

O'zbekiston SSR Markaziy Revkomi 1925-yil 13-yanvarda bo'lgan majlisida O'zbekistonni ma'muriy jihatdan ajratish masalasini ko'rib chiqdi va quyidagicha qaror qabul qildi:

“1. Ma'muriy bo'linish haqidagi masala zarbdor deb topilsin.

2. Quyidagi vakillar ishtirokida komissiya tuzilsin: Ichki ishlar xalq komissarligidan Rubinshteyn, Xorazmdan Davlat Rizayev hamda Markaziy statistika boshqarmasi vakili Buxoro va Xorazm organlari qo'lida bo'lgan barcha materiallarni to'plab, O'z SSRni ma'muriy bo'linishini oxiriga yetkazsinlar.

3. Bu komissiyaga o'z fikrlarini rayonlashtirish komissiyasi bilan birgalikda olib borish zimmasiga yuklansin.

4. Komissiya o'z ishini 2 hafta muddat davomida tugatsin”[9].

Ko'rsatilgan muddat ichida NKVD ma'muriy komissiyasi va Gosplan rayonlashtirish komissiyasi O'zbekistonni ma'muriy jihatdan bo'lish haqidagi loyihani tayyorlab, uni tasdiqlash uchun O'zbekiston SSR Revkomiga topshirdilar.

Tarixdan ma'lumki, O'zbekiston SSR uchta respublikadan: o'z spetsifik ma'muriy bo'linish tizimiga ega bo'lgan Turkiston, Buxoro va Xorazmdan barpo etilgan edi. Turkiston ASSR oblastlar, uyezdlar, volostlar va qishloq sovetlariga; Buxoro Respublikasi viloyatlar, tumanlar, kentlar, aminliklar va qishloq oqsoqolliklariga; Xorazm Respublikasi oblastlar, tumanlar, sho'rolar va oqsoqolliklariga bo'lingan edi. Yangi tashkil topgan respublikada ma'muriy tizimning har xilligi boshqarishni tashkil etish va xalq xo'jaligini tartibga solishni qiyinlashtirar edi. Respublikaning rivojlanishi va taraqqiyot yo'lidagi bu to'siqlarni yo'qotish uchun tegishli tadbirlar belgilash va choralar ko'rish lozim edi. Bunday holda O'zbekiston SSR tashkil qilingan dastlabki kunlarda respublikani ma'muriy jihatdan bo'linishining yagona yo'lini amalga oshirish vazifasi turar edi.

Sovet apparatini mehnatkashlar ommasiga yanada ko'proq yaqinlashtiradigan ma'muriy bo'linishga erishish kerak edi. Shunga asosan O'zbekiston SSR Markaziy Revkomi Prezidiumi 1925 yil 29 yanvarda butun O'zbekiston bo'yicha ma'muriy bo'linishning bir xil tizimini joriy qilinishiga asos solgan dastlabki qarorni qabul qildi. Unda butun O'zbekiston hududida ma'muriy bo'linishni unifikatsiya qilishga qaror qilindi. Bu qaror natijasida 1925 yil martdan to O'zbekiston SSRda yangi rayonlashtirish o'tkazilgungacha quyidagi bo'linish amal qildi. Bunda sobiq Turkiston ASSRda bo'lganidek respublikaning butun territoriyasini oblastlar (viloyatlar), uyezdlar, volostlar va qishloq sovetlariga bo'lish kerak edi. Avval ham aytib o'tilganidek, bu qaror asosida O'zbekiston SSRda 23 ta uyezd, 240 ta volostdan iborat 7 ta viloyat: Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Zarafshon [Buxoro], Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm oblastlari hamda Konimex avtonom qozoq rayoni barpo etildi[10]. O'zbekiston SSR hududida 1163 ta qishloq sovetlari bu davrda mavjud bo'lgan[11].

Bu paytda O'zbekiston SSR tarkibida bo'lgan Tojikiston ASSRda viloyatlarga bo'linish vaqtincha saqlanib qoldi. 1925 yili Tojikiston ASSR tarkibida 7 ta viloyat (G'arm, Dushanbe, Ko'lob, Qo'rg'ontepa, Tog'li Badaxshon, Panjikent, O'ratepa) bo'lib, ular 39 ta tuman yoki volost, 63 ta kent va 4603 ta qishloqlardan iborat bo'lgan.

O'zbekiston SSRda 1925 yil yanvar oyi oxirida dastlabki ma'muriy bo'linishning yagona sistemasi joriy etilishi boshqarish organlari ishlarini tashkil etish va mustahkamlashda, respublikani yanada rivojlantirishda muayyan ahamiyatga ega bo'ldi. Biroq bu sohadagi qadamlar dastlabki tadbirlar bo'lib, bu qat'iy va to'liq emas edi. Chunki rayonlashtirishning bu bosqichida O'zbekiston xalq xo'jaligi turli tarmoqlari va respublika xo'jalik hayotining xilma-xilligi hali to'liq hisobga olinmagan edi[9]. Shuning uchun O'zbekiston SSRni bunday dastlabki rayonlashtirish yangi tashkil qilingan respublikaning tobora o'sib borayotgan siyosiy va iqtisodiy talablariga javob bera olmas edi. Qolaversa, O'zbekistonga qo'shni bo'lgan O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'istonda, hatto RSFSRda 1925 yili yagona rayonlashtirish siyosati hali to'liq tugallanmagan edi.

O'zbekistonning 1925 yil yanvardagi rayonlashtirishga muvofiq ma'muriy-xo'jalik bo'linishi ayrim rayonlarning o'zaro iqtisodiy aloqalarini, siyosiy va madaniy rivojlanishini to'liq e'tiborga olmagan edi. Rayonlashtirishda ko'plab qishloq sovetlari va volostlar haddan tashqari tarqoq holda joylashtirildi, ularning chegaralarini belgilashda turli xatolar va chalkashliklarga yo'l qo'yildi. Ko'pincha ma'muriy rayon bilan xo'jalik rayoni o'zaro mos kelmas edi[12].

Arxiv xujjatlarida keltirilishicha, Zarafshon viloyatida har bir qishloq soveti hududiga o'rta hisob bilan 25 ta qishloq (aholi punkti) bo'lib, ularning har birida 6050 nafar aholi yashagan. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ahvol yanada yomonroq bo'lib, bu yerlarda ayrim qishloq sovetlari ixtiyorida 80 – 90 ta qishloq to'g'ri kelardi[1]. Masalan, Zarafshon viloyatidagi Sultonobod qishloq sovetida 90dan ortiq qishloqlar bo'lgan[13]. Bunday ma'muriy bo'linish qishloq joylardagi aholining talablariga javob bermas, quyi sovet apparatining mehnatkashlar bilan ishlashini qiyinlashtirar edi.

Bu davrda O'zbekiston muvaqqat hukumati tomonidan respublika hududida yashovchi Milliy kamchilik aholi ishlari maxsus komiteti tashkil qilindi. O'zbekiston SSR Revkomi huzurida 1924 yil 13 dekabrda tashkil qilingan ushbu komitet tarkibi 3 nafar kishidan iborat bo'lib, unga Ahmadbek Mavlonbekov (rais), Bogoda (rais o'rinbosari), Aronson (komissiya a'zosi va mas'ul kotib) qilib kiritildi[14]. O'zbekiston SSR Sovetlarinig I ta'sis qurultoyidan keyin bu komitet qayta nomlandi. U

O'zbekiston SSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Komiteti huzuridagi Milliy kamchilik aholi ishlari bo'yicha Markaziy komissiyasiga aylantirildi. Markaziy komissiyaga katta huquq va vakolatlar beriladi. Komissiya faoliyati natijasida O'zbekiston SSR tuzilgandan keyin dastlabki oylarda alohida maxsus rayonlar, masalan, aholisi asosan qozoq va qoraqalpoqlardan iborat Konimex rayonini boshqarish bevosita O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komiteti tomonidan amalga oshirildi[15]. Farg'ona viloyatining Konibodom rayoni Farg'ona viloyati ijroiya komiteti tomonidan boshqarildi. Bu haqda O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komiteti Sovetlari Prezidiumi 1925 yil 15 aprelda maxsus qaror qabul qilgan[9].

1926-yil 31-iyulda O'zbekiston SSR Sovetlarining Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumida Milliy kamchilik aholi ishlari bo'yicha Markaziy komissiyaning hisobot ma'ruzasi eshitildi[16]. 1926-yil 14-avgustda mazkur ma'ruza bo'yicha qabul qilingan qarorda oblast ijroiya komitetlariga bir oylik muddat ichida bunday joylarda yashaydigan mahalliy aholi tilida ish yuritish, ma'lumotnoma va turli ish yuritish qog'ozlarini bu tillarda olib borish, militsiya, moliya bo'limi, qishloq sovetlari va boshqa idoralarda aholi bilan shu tillarda muloqat qilish vazifasi yuklatildi. Oblast va uyezd ijroiya komitetlariga aholiga qarata chiqariladigan turli xitobnoma, murojaatnoma, qarorlar va boshqa hujjatlarni mazkur rayonlarda g'uj(gavjum) bo'lib yashaydigan aholi tilida chiqarishlari aytili[17]. Natijada O'zbekistonda ko'plab milliy qishloq Sovetlari tashkil qilindi.

Xullas, 1925 – 1926 yillarda O'rta Osiyo Respublikalari, shu jumladan, O'zbekiston SSRda ham rayonlashtirish siyosatining so'nggi bosqichini tayyorlash va o'tkazishga katta e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Kompartiyasi II sezdi (Samarqand; 1925-yil 22 – 30 noyabr)da respublikaning mavjud rayonlarini jiddiy o'rganib, rayonlashtirish rejasini puxta ishlab chiqarish aytili. Bunda O'zbekistonning ayrim chekka oblastlari (Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo, Tojikiston ASSR)da iqtisodiyot orqada qolayotganligi quyidagicha ko'rsatiladi:

O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi rasi (1925-yil 17-fevraldan) hamda O'zbekiston SSRni rayonlashtirish komissiyasi a'zosi (1925-yil 16-iyuldan) Yo'ldosh Oxunboboyev rayonlashtirishning maqsadi, rayonlashtirishni to'g'ri yo'lga qo'yish lozimligi va uni ilgari eski idoraviy bo'linishdan farqini hamda O'zbekistonda rayonlashtirish qanday o'tkazilayotganligini o'z asarida ko'rsatib o'tadi. Y.Oxunboboyevning rayonlashtirishning avvalgi va keyingi holatlari to'g'risida aytgan quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir:

“Eski vaqtdagi idoraviy tuzilishning yetishmagan joyining birisi ham idoraviy markazning va yoki rayon markazining hukumat mahkamalari turadigan joyning o'sha joyning iqtisodiy markaziga (bozoriga) to'g'rilanib tuzilmaganligi edi. Bizda esa idoraviy tuzilish orqasida shunday holda qolgan qishloqlar bordirki, u qishloqlar 5 – 6 tadan iborat bo'lib, suv chiqadigan ariqlari bir bo'lsa ham shu qishloqlarning o'zlari ikki kentga bo'linadirlar. Bu kentning birisida iqtisodiy markaz (ya'ni bozor) bo'lsa, ikkinchisida idoraviy markaz (hukumat mahkamasi) bo'ladi.

Rayonlashtirishni yuqoridan turib qilib bo'lmaydir.

Rayonlashtirish orqasida mayda millatlarga ham keng huquq beriladi. Masalan, qozoq, tojik, uyg'ur va boshqalarning ko'plab turgan joylarida milliy qishloq sho'rolari va milliy rayonlar tashkil etilgusidir.

Rayonlashtirish ishi ham ishchi va dehqonlarimizning tinch va osoyishta yashashi, ro'zg'or-xo'jaligini yangidan, yangi yo'llar bilan taraqqiy qildirishi va oz kuch sarf qilib, ko'p hosil olishi yo'lida yashashi uchun yasaladir, yuzaga chiqariladi”[18].

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston SSR tashkil qilingach, rayonlashtirish masalasi kun tartibiga dolzarb siyosiy va iqtisodiy masala sifatida qo'yildi. Yangi tashkil topgan O'rta Osiyo sovet respublikalari qatori O'zbekiston SSRda ham bu davrda ma'muriy bo'linishda bir qator o'zgarishlar qilingan bo'lishiga qaramasdan ular davr talablari, iqtisodiyot ahvoli va siyosiy o'zgarishlarga javob bermas edi.

1925-yil yanvarda O'zbekistonda o'tkazilgan dastlabki ma'muriy bo'linish ayrim xatolik va chalkashliklardan xoli bo'lmagan. Iqtisodiy-xo'jalik rayonlashtirish sohasidagi ahvol ham ana shunday edi. Shuning uchun ham O'zbekiston SSRda 1925-1926 yillar davomida rayonlashtirishning so'nggi bosqichini o'tkazishga jiddiy tayyorgarlik ko'rilgan edi.

1. Турсунов Ҳ.Т. Ўзбекистон Совет Социалистик Республикасининг барпо этилиши. – Тошкент: Ўз ССР ФА нашриёти, 1958.
2. Узбекистан: экономика-географическая характеристика. –Ташкент: Изд. АН Уз ССР, 1950.
3. Узбекистон ССР тарихи. Тўрт томлик. Том III. (1917 – 1937 й.). Бош муҳаррир И.М. Мўминов. – Тошкент: “Фан”, 1971.
4. Бодиров А. Самарқанд шаҳрининг Ўзбекистон ССР пойтахтига айлантирилиши ва унинг республика сиёсий бошқарувидаги ўрни // 5. “Мустақиллик ва илмий тадқиқотлар” мавзусидаги республика илмий конференцияси материаллари (2016 йил 11 ноябрь). – Тошкент, 2016.
5. Ражабов Қ., Қандов Б., Ражабова С. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари (Энг қадимги даврлардан бугунги кунгача). Тўлдирилган ва қайта ишланган 6 - нашр. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2015.
6. Крыльцов И.И. О принципах экономического размежевания Среднеазиатских республик // “Народное хозяйство Средней Азии» (Ташкент). 1926. № 8-9.
7. Ўзбекистон миллий архиви, Р-837-фонд, 1-рўйхат, 46-иш, 204 - 209 - варақлар.
8. Ўзбекистон МА, Р-9-фонд, 3- рўйхат, 122-иш, 107- варақ.
9. Хакимов М.Х. Развитие национальной советской государственности в Узбекистане в период перехода к социализму. Основные проблемы. – Ташкент: “Наука”, 1965.
10. Ўзбекистон МА, Р-87-фонд, 1-рўйхат, 3-иш, 25-варақ.
11. Материалы по районированию Узбекистана. Выпуск I. Краткая характеристика проектируемых округов и районов. –Самарканд: Издание ЦКР Уз, 1926. – С.VI.
12. Материалы Всесоюзной переписи населения. 1926 г. в Узбекской ССР. Выпуск I. Поселенные итоги. – Самарканд: ЦСУ Узбекской ССР, 1927.
13. Ўзбекистон МА, 86-фонд, 1-рўйхат, 3101-иш, 1-25-варақлар.
14. “Правда Востока” (Ташкент), 5 апреля 1926 г.
15. “Правда Востока” , 22 декабря 1924 г.
16. Ўзбекистон МА, Р-86-фонд, 1-рўйхат, 2222-иш, 50-варақ.
17. Ўзбекистон МА, Р-86-фонд, 1-рўйхат, 2783-иш, 147-варақ.
18. Й.Охунбоев. Танланган асарлар. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1976.